



AGRAR SOHAGA INVESTITSIYA JALB QILISH AMALDAGI HOLATI TAHLILI

**Yusufjonov Ravshanbek
Rustamjon o'g'li**

Namangan davlat texnika universiteti

O'zbekiston Respublikasida agrar soha mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri bo'lib, uning rivojlanishi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholi bandligini oshirish va eksport salohiyatini kengaytirish bilan bevosita bog'liqdir. Mamlakatda agrar islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgani, fermer xo'jaliklari, dehqonlar va agroklasterning rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilayotgani investitsion faollikni kuchaytirishni talab etmoqda. Agrar sohani modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va raqobatbardosh mahsulotlar yetishtirish uchun katta hajmdagi investitsiyalar zarur. Biroq, mavjud investitsiya resurslarining yetarli emasligi, ularning taqsimlanishidagi nomutanosibliklar, ayrim hududlarda investorlar uchun infratuzilmaning rivojlanmaganligi kabi muammolar hali ham saqlanib qolmoqda. Shu sababli, sohada investitsiyalarning amaldagi holatini chuqur o'rganish, mavjud imkoniyat va to'siqlarni aniqlash dolzarb vazifalardan biridir.

Agrar sohada iqtisodiy o'sishning barqarorligi, ishlab chiqarishdagi yuqori samaradorlikni, ish bilan bandlikni ta'minlash, aholining turmush darajasini oshirish, asosiy kapitalga bo'lgan talabni qondirish kabi mavjud muammolarning ijobiy echimini topishga tarmoqda investitsion faollikni oshirish orqaligina erishish mumkin. Bu esa, mazkur muammolarni hal etishda tarmoqqa investitsiyalar oqimini ko'paytirish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni tadqiq etishni zaruriyat qilib qo'ymoqda.

Bugungi kunda respublikada yaratilgan investitsiyaviy muhit iqtisodiyotning boshqa sohalariga kabi agrar sohaga ham xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish imkonini yaratib berdi va u yil sayin qulaylashtirib borilmoqda. Lekin, agrar sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha mavjud investitsiyaviy muhitni qoniqarli, deb bo'lmaydi. Bunga birgina iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlarning salmog'i ham isbot bo'la oladi. 2023-yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'zlashtirilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlarning atigi 5,4 foizi qishloq xo'jaligiga to'g'ri kelgan va bu ko'rsatkich 2019-yilga (7,5%) nisbatan 2,1 foizli bandga pasaygan (1-jadval).

Ushbu pasayish asosan, sanoatning YaIM hajmidagi ulushining barqaror sur'atlarda oshishi hisobiga yuz bergan. Tahlil qilingan davr oralig'ida ishlab chiqarish sanoatida agrar sohaga nisbatan 7 barobar ko'p xorijiy investitsiya va kreditlar

o'zlashtirilgan. Bu esa, mamlakatimizda sanoat korxonalarining taraqqiy etib, ishlab chiqarish hajmlarining o'sib borayotganligi nuqtai nazaridan ijobiy holat, biroq agrar sohaga ichki imkoniyatlar cheklangan hozirgi sharoitda xorijiy investisiyalarni ko'proq jalb etish amaliy harakatlarining respublikada o'ta sust olib borilayotganligining oqibati bilan bog'lash mumkin.

1-jadval


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investisiya va kreditlar tarkibi, jamiga nisbatan ulushi (foiz hisobida) ¹

Iqtisodiyot tarmoqlari	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.
Ishlab chiqarish sanoati	33,0	42,1	37,5	42,5	38,0
Elektr, gaz bilan ta'minlash	19,0	8,3	12,1	14,1	19,8
Tog'-kon sanoati	18,0	18,2	14,2	9,8	14,9
Qishloq xo'jaligi	7,5	10,4	9,7	6,8	5,4
Tashish va saqlash	3,0	2,3	6,0	6,5	5,4
Qurilish	2,0	4,8	4,6	3,3	2,6
Sog'liqni saqlash	2,0	2,0	4,1	3,1	1,9
Suv va kanalizasiya bilan ta'minlash	1,9	1,3	1,4	1,9	1,8
Axborot va aloqa	2,0	2,3	2,0	1,3	2,4
Boshqa faoliyat turlari	11,6	8,3	8,4	10,7	7,8
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

Eng muhimi, makroko'lamda xorijiy investisiyalar yuqori sur'atlarda o'sishda davom etayotgan bir sharoitda agrar sohaga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar hajmining pasayish tendensiyasiga ega bo'lganligini kelajakda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda xavotirli signal sifatida qabul qilinishi kerak. Bundan tashqari, agrar sohada investisiyaviy jozibadorlikning yaxshi emasligining sabablari qatorida sohaga xos yuqori xavflar qatoriga qurg'oqchilik, suv toshqinlari, turli zararkunandalar, kasalliklar kabi tabiiy ofatlar, mavsumiylik va narxlarning yuqori o'zgaruvchanligi, shuningdek, jahon va mintaqaviy bozorlardagi tez o'zgarishlar kiradi.

Bir vaqtning o'zida, chet ellik investorlar uchun mamlakatimiz agrar sohasining investisiyaviy jihatdan jozibadorligini yanada oshirilishi zarurligini taqozo etmoqda. Buni quyidagi 2.3-rasm ma'lumotlari ham tasdiqlaydi. Xususan, 2019-2023-yillar mobaynida mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan jami xorijiy investisiya ishtirokidagi korxonalar soni qariyb 1,4 barobarga oshgan bir paytda agrar sohada faoliyat yuritayotgan korxonalar soni 54 taga kamaygan (1-rasm). Buning asosiy sabablaridan biri mamlakatimiz qishloq xo'jaligida hanuzgacha qulay va jozibador investisiyaviy muhitning yaratilmaganligi, ushbu sohaning mavsumiy xarakterga ega bo'lganligi, xorijiy investisiya ishtirokidagi korxonalar tashkil etishda ustav fondini shakllantirish, agrar sohada zarur infratuzilmalar yaratish bilan bog'liq muammolardir.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



1-rasm. Agrar sohada faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy investisiya ishtirokidagi korxonalar (birlikda) ²

O'zbekistonda agrar sohaga investitsiya jalb qilish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu sohaning barqaror rivojlanishi, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va eksport hajmini oshirishda muhim o'rin tutadi. So'nggi yillarda qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, agroklastlar tizimini kengaytirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish borasida ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, agrar sohaga investitsiyalar quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda: sug'oriladigan yerlarni rekonstruksiya qilish, zamonaviy texnika va texnologiyalar xaridi, agro-logistika markazlari qurilishi, issiqxona xo'jaliklarini kengaytirish, shuningdek, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish. Biroq, ushbu jarayonda bir qator muammolar – moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi, huquqiy kafolatlarning yetarli emasligi, ba'zi hududlarda infratuzilmaning zaifligi va investorlar uchun byurokratik to'siqlarning mavjudligi aniqlanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, agrar sohaga investitsiya jalb qilish O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi uchun strategik ahamiyatga ega bo'lib, bu boradagi islohotlarni izchil davom ettirish investitsion faollikni oshirish va soha raqobatbardoshligini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.